

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI

Feruza Eshboyeva Xolmuradovna
Angren universiteti dotsenti v.b.

Shodiyeva Difuza Urinbayevna
Angren universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Jadid ziyolilarining ibratli hayoti, boy ma'naviy merosini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Ushbu maqolada taniqli ma'rifatparvar ijodkor Abdulla Avloniyning badiiy faoliyati hamda uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yaxshi xulqlar, yomon xulqlar, "usuli jadid", tarbiya, axloq, ma'rifat, pand-nasihat.

O'zbek matbuotining asoschilaridan biri, shoir, dramaturg Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi oilasida dunyoga keladi. Abdulla Avloniy 7 yoshdan O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qiydi. 16 yoshidan boshlab turli mavzularda she'rlar yoza boshlaydi. Mustaqil mutolaa bilan shug'ullanadi. Ma'rifatparvar ijodkor tashabbusi bilan 1907-yili "Shuhrat" keyinchalik "Osiyo" nomli gazetalar chiqarib boshlaydi, lekin turli sabablar bilan gazetalar yopirib qo'yiladi. Abdulla Avloniy 1908-yilda Mirobodda "usuli jadid" maktabini ochadi va muallimlik qila boshlaydi. U ochgan maktab o'z davrining yangi usuldagi ilg'or maktablardan biri bo'lgan. Ijodkor o'z hayoti davomida ijodiy ishlar bilan shug'ullanish qatorida mahalliy xalq bolalarining o'qib, bilim olishiga ko'maklashadi. Shu maqsad bilan 1909-yilda "Jamiyati xayriya" tashkilotini ochadi va pul yig'ib, maktablarga tarqatadi.

Abdulla Avloniy xalqni ma'rifatga undashning o'zi kifoya emasligini yaxshi bilgan holda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Bolalarni maktablarda o'qitish uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", olti qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" singari darsliklar, alifbo va o'qish kitoblarini yozadi. Ushbu kitoblar bolalar yoshi va saviyasiga mosligi, o'quvchilarni tezroq savodxon qilishga yo'naltirilganligi bilan zamonasining boshqa ta'limiy kitoblaridan ajralib turadi. Keyinchalik ushbu kitoblar Toshkentdagi barcha yangi usul maktablari uchun qayta-qayta nashr qilingan.

Abdulla Avloniyning pand-nasihat ruhida yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari yosh avlodni bilimli, axloqli qilib tarbiyalashda muhim qimmatli manba hisoblanadi.

Ma'rifatparvar adib bu asarida insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismda u 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta’rif beradi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Qur’oni karim oyatlari va hadislardan, shuningdek, Aflotun, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Mavlono Rumiy, Shayx Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlaridan foydalanadi. Asarda muallif insondagi har bir sifat va fazilatga o‘z munosabatini bildirar ekan, o‘sha fikrlarning mazmunini ifodalovchi bayt yoki she’riy hikmat ham keltiradi.

Abdulla Avloniy hayotda tarbiya masalasini eng avvalgi o‘ringa qo‘yadi. Barcha ishlarning muvaffaqiyatini tarbiya bilan bog‘laydi. bilimsizlik, johillik, jinoyatlarning sababini tarbiyasizlikda ko‘radi. “Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liq” ekanligini uqtiradi:

“Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,

Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat...

Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,

G‘ayrat aylang o‘tmasun vaqt-zamoni tarbiyat”¹.

Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uchun, avvalo, badan (tan) salomat bo‘lmog‘i zarur. Muallif fikricha, buning uchun inson badanini ichkilik, ko‘knor, nasha kabi bevaqt zalolatga, tubanlikka eltuvchi, salomatlikka zarar narsalardan asrashi kerak. Bu esa, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Adib fikr tarbiyasi orqali inson g‘ayratli, sharofatli bo‘lishini ayta turib, bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas’uliyat muallimlar zimmasiga tushishini eslatadi. Shu o‘rinda Abdulla Avloniy “birining vujudi biriga boylangan jon ila tan” deya ta’lim va tarbiya birligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. Adib inson uchun eng muhim bo‘lgan, uni yuksak maqomga eltuvchi axloqiy tarbiya xususida ham fikr bildirar ekan, barchani ilmiga amal qiluvchilardan bo‘lishga chaqiradi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida turli sifat va fazilatlar to‘g‘risida so‘z yuritir ekan, axloqni “insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi” ilm deya ta’riflaydi. Ezgulikni, yaxshilikni anglamoq uchun, eng avval, o‘zlikni tanimoq lozimligini aytadi. Shuningdek, muallif insonlarni yaxshilik qila olmagan taqdirda yomonlik ham qilmaslikka chaqiradi:

“So‘ylasang so‘yla yaxshi so‘zlardan,

Yo‘qsa jim turmoqing erur yaxshi.

O‘ylasang yaxshi fikrlar o‘yla,

Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yaxshi.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yo‘qsa bekorlig‘ing erur yaxshi”².

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилд – Т.:“Маънавият”, 2020. – 37-б.

² https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Abdulla%20Avloniy.%20Turkiy%20Guliston%20yoxud%20axloq.pdf

Ma'rifatparvar adib asarda: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afv kabi yaxshi xulqlarni birma-bir ta'riflab, unga ega bo'lish shartlarini ham bayon qiladi. Muallif fikricha, yaxshi xulqni qo'lga kiritmoq uchun kattalar pand-nasihatiga quloq tutib, axloqli kishilar bilan do'st bo'lish, yomon xulqli kishilardan uzoqda bo'lish lozim:

“Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,

Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur.

Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,

Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur”³.

Asarning “Hifzi lison” (“Til muhofazasi”) deb nomlangan kichik bobida ona tiliga e'tibor masalasi o'rta qo'yiladi. Millatning ruhi bo'lgan ona tilining ahamiyati ko'rsatilib, uni sof saqlamoq barchaning burchi ekanligi uqtiriladi. Shuningdek, ushbu bobda so'zning qadr-qiymati, so'zlash odobi haqida muallif fikr-mulohazalari keltirilib, foydasiz so'zlarni aytishdan qochishga da'vat etiladi: “So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar...

Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,

So'zi shirin kishi har kimga yoqar.

So'zing oz bo'lsin-u ma'noli bo'lsun,

Eshitkanlar qulog'i durga to'lsun.

So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltin,

Misi chiqq'ay so'zing ko'p bo'lsa bir kun.

Ko'paygan so'zni bo'lgay to'g'risi oz,

Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz”⁴.

Bugungi zamonaviy maktablar hamda milliy matbuotimizning tamal toshini qo'yishda davr ma'rifatparvarlari qatori mutaffakkir ijodkor Abdulla Avloniyning xizmatlari ham beqiyos. Adib asarlarida Vatanga muhabbat, ma'rifatga targ'ib, inson kamoloti va jamiyat rivoji uchun xizmat qilish kabi g'oyalar yaqqol sezilib turadi. Uning ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qilib, har tomonlama yetuk, sog'lom fikrli avlodni hamda zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashda dasturulamal bo'lib kelmoqda.

³ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилд – Т.:“Маънавият”, 2020. – 41-б.

⁴ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилд – Т.:“Маънавият”, 2020. – 62-б.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилд – Т.:“Маънавият”, 2020.
2. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
- 3.https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Abdulla%20Avloniy.%20Turkiy%20Guliston%20yoxud%20axloq.pdf